

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Behbudiy ilm va ma’rifatni milliy yuksalishning asosi deb bilgan. Bugun biz uning izdoshlari sifatida bu g’oyani yangi sharoitda — raqamli muhitda davom ettirishimiz kerak.

Demak, vazifa aniq: yoshlar ongini ma’naviy mazmun bilan to’ldirish, raqamli texnologiyalarni esa vosita sifatida to’g’ri yo’naltirish. Ana shunda milliy qadriyatlar zamonaviy shaklda yashaydi, va biz g’oyaviy mustahkam, tanqidiy tafakkurga ega, ma’naviy immuniteti kuchli avlodni voyaga yetkazamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi NMIU, 2014.
2. Jo’rayev N. Milliy g’oya va ma’naviyat asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.
3. Mirziyoev Sh.M. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017.
4. Qurbonov A. Raqamli madaniyat va yoshlar // Ijtimoiy fikr jurnali, 2021, №4.
5. Karimova Z. Axborot asrida yoshlar ongiga ta’sir qiluvchi omillar // Ma’naviyat jurnali, 2022, №2.
6. Usmonxo’jayev B. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: Fan, 2018.
7. UNESCO. Global Education Monitoring Report: Technology in education – A tool on whose terms? – Paris: UNESCO Publishing, 2023. <https://unesdoc.unesco.org>
8. Pew Research Center. Teens, Social Media and Technology 2022. – www.pewresearch.org
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi. Yoshlar siyosati va g’oyaviy immunitet masalalari. – Toshkent, 2022.
10. Ziyovuddinov H. Tanqidiy fikrlash: yoshlarga zaruratmi, majburiyatmi? // O‘zbekiston ovozi, 2023-yil, 15-aprel soni.

KREDIT-MODUL TIZIMIDA MUSTAQIL ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH: INNOVATSION YONDASHUVLAR.

Mirzaaliyeva Gulira’no Mirzaanvar qizi.

Namangan davlat insitituti.

Annotatsiya: *Ushbu maqola kredit-modul tizimida mustaqil ishlarni tashkil etish, ularning samaradorligini oshirish yo’llari hamda zamonaviy innovatsion yondashuvlar tahlil etilgan. Mustaqil ta’lim faoliyatining o’quv jarayonidagi o’rni, talabaning bilimga bo’lgan ma’sulyatini kuchaytirishdagi ro’li yoritilgan. Xususan, Cambridge ta’lim tizimi tajribasi asosida mustaqil ishlarning raqamli platformalarda yuritilishi, baholash mezonlari ushlab o’rganilgan. Maqola modul tizimining amaldagi kamchiliklarini tahlil qilib, ularni bartaraf etish bo’yicha taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.*

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Kalit so'zlar: *mustaqil ta'lim, kredit-modul, didaktik sharoitlar, kredit soatlari, internet texnologiyalari, raqamli platformalar, formativ va summativ baholash, reyting baho.*

Kirish qismi:

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini olib borish shuni ko'rsatadiki, talabalar faqat mustaqil ishlash orqali bilimlarni o'zlashtira oladilar. Mustaqil ta'lim jarayonida: asosiy bilimlar, ko'nikmalardir.

Ular ijodiy ishlarga qiziqish uyg'otadi va kelajakdagi kasbiy faoliyatida ixtirolar, g'oyalar va ishlanmalarni yaratishga undaydi. Shu sababli, talabalarning kasbiy va ijodiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishda mustaqil ishlarni tizimli rejalashtirish va tashkil etish muhimdir[1]. Ba'zi tadqiqotchilar talabani mustaqil ishini ta'limiy faoliyat shakli sifatida tushunadilar, bunda talaba o'z faoliyatini boshqaradi — avval bir, so'ngra bir nechta va nihoyat eng ko'p bosqichlarda, asosiy bosqichlar esa o'qituvchi tomonidan boshqariladi. Xuddi shu paytda, oliy ta'lim muassasasida (universitetda) kredit-modul tizimidan foydalanish uchun didaktik sharoitlar muammolari zamonaviy ta'lim dasturlari kontekstida yetarlicha rivojlantirilmagan edi[2].

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida talaba o'zlashtirishi uchun eng ko'p soat va kreditlar ajratilgan ammo uning o'zlashtirish baholariga hech qanday ta'siri yo'qligining talabalarga ta'siri haqida yoritilgan.

Asosiy qism:

Bundan taxminan 5 yil avval oliy ta'lim muassasalarida talabalarni o'qitishda balli sistemadan foydalanilar edi. Bunda talaba har darsda mavzularni topshirar, bilimiga munosib ravishda o'qituvchilar tomonidan ball berilar edi. Bunda talabani joriy, oraliq ballari hisobga olinar va so'ngida kamida minimal ball to'plagan talabalar yakuniy nazorat uchun ruxsat berilar edi. Talabaga bir fandan faqat 1 ta mustaqil ish berilar edi ammo uni tajribali o'qituvchilar kuzatuvda topshiradi va baholanaradi. Har bir talaba qayta o'zlashtirishga qolib ketmaslik uchun o'zi mustaqil ravishda harakat qilar edi. Qayta o'zlashtirishga qolgan talabalar hech qanday pul belilangan ammo albatta qayta o'zlashtirib imtihonlarni topshirar edi.

Hozirda oliy ta'lim muassasalar kredit-modul tizimida faoliyat olib bormoqdalar. Oliy ta'lim muassasalari talabalarining oraliq, joriy va mustaqil ta'limlarga eng ko'p kreditlar ajratilgan ammo talabalarining yakuniy bahosi asosi baho sifatida hisobga olinadi holos.

Mustaqil ta'lim nima? Mustaqil ta'lim - bu oliy ta'lim muassasalarida talabalarining darsdan tashqari soatlarda mustaqil ravishda zarur bilimlarni o'zlashtirish jarayonidir. Ingliz tilida mustaqil ta'limga turli nomlar berilgan. Ular: self-access work, self-directed learning, autonomous learning, independent work va learner-training. Ular, shuningdek, mustaqil ish, mustaqil ta'lim, mustaqil o'qish, o'z uslubida mustaqil o'qish va o'qitishni anglatishi mumkin. [3].

Ko'plab tadqiqotchilar talabalarining mustaqil ish tashkiloti muammosiga e'tibor qaratib, internet texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi ahamiyatiga urg'u bermoqda Biroq, ta'lim

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

darajasiga asoslangan mustaqil ish tashkiloti yetarlicha o'rganilmagan, bu esa ushbu tadqiqotga yangilik qo'shadi. Tadqiqot shuningdek, universitetda an'anaviy o'qitish usullarini ko'rib chiqish va zamonaviy texnologiyalar yordamida ta'lim jarayonini optimallashtirish hamda talabalarning mustaqil ishlash va o'qituvchilarsiz o'quv materiallarini qidirish motivatsiyasini oshirish uchun yangi metodologik yondashuvlarni taklif qilish ehtiyojidan kelib chiqadi. [4].

O'quvchilarning mustaqil ishini rivojlantirishda umidli sohalardan biri bu maxsus dasturiy ta'minot yordamida blog yuritish bo'lib, u ma'lumotlarni tahlil qilish va tahrirlash imkonini beradi. Eng muhim muammo - o'quvchilarning mustaqil o'rganish orqali egallagan ma'lumotlarini nazorat qilishdir. O'qishni baholash uchun modulli reyting tizimini joriy etish o'quvchilarni o'qishga undaydi, chunki bu tizim baholarni aniq ajratib ko'rsatadi va o'qituvchining subyektiv ta'sirini minimallashtiradi. Bu yondashuv ta'lim sifatini oshiradi va o'quvchilarni mustaqil ishga jalb qiladi [5].

Oliy ta'limda mustaqil ta'lim talabalarning asosiy o'quv yuklamasini asosiy qismini tashkil etadi. Bu talabaning bilim olishdagi faolligini oshirish, izlanish ko'nikmalarini shakllantirish va axborot yuklamasini mustaqil ishlash malakasini oshirishga xizmat qilishi lozim. Biroq, tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki mustaqil ishlarni tashkil etishning bir qator muammolari bor.

Ushbu rejalashtirilgan rejalarni amalga oshirish uchun, respublikamizdagi oliy ta'lim muassasalarining kredit-modul tizimiga o'tish jarayoni bir qator muammoli holatlarning bartaraf etilishini talab qiladi.

1. OTM rahbariyati kredit-modul tizimini faqat kredit tomonini amalga oshirish bilan cheklanmoqda.
2. Hozirgacha mustaqil ta'limni tashkil qilish bo'yicha hech qanday rasmiy hujjat tasdiqlanmagan.
3. Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil qilish va baholash bo'yicha umumiy vaqt me'yorlari ishlab chiqilmagan.
4. Mustaqil ta'lim dars jadvalida foiz sifatida keltirilgan bo'lsa-da, unga haq to'lanmagani sababli e'tibor berilmaydi.
5. O'qituvchilar talabalarni mustaqil ishlashga tayyorlay olishadimi — bu hamon ochiq savol.
6. Hozir tashkil etilayotgan mustaqil ta'lim ishlarining talabga mosligi noma'lum[6].

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, mustaqil ishlar zamonaviy ta'limning ajarmas qismidir. Bundan tashqari biz texnologiya dunyosida yashamoqdamiz va bu bizdagi ta'lim tizimining asosiy qismini tashkil etadi. Agar biz talabalarni mustaqil ishlarni to'g'ri tashkillashtirishda Cambridge tizimiga o'xshash tizimda shakllantirsak, talabalarga aniq rejalashtirilgan topshiriqlar, raqamli platformalar, formativ va summativ baholashlar va ularning reyting balliga ta'siri bo'yicha ishlar olib borsak mustaqil ta'lim talabalarni ijodiy fikrlashlari va mustaqil izlanuvchanligini oshiradi.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. Akbarova Sayyora Shukhratovna, TSEU, doctorant, ORGANIZATION OF THE PROCESS OF INDEPENDENT WORK OF STUDENTS IN THE CREDIT-MODULAR SYSTEM OF EDUCATION.(65-68)
2. Atamanyuk, V. V. To you, a first-year student: recommendations, tips, training programs / V. V. Atamanyuk, R. S. Gurevich, L. L.(25-32)
3. Mirzayeva Zulkhumor, Navoi Innovations University, Navoi, Uzbekistan, Students Independent Work in Credit Module System(1121-1123)
4. Aminov, I. B., & Khodzhaieva, D. F. (2017). Современные технологии для эффективной организации самостоятельной работы студентов, Modern technologies for effective organization of students' independent work. Молодой Ученый, 3(137), 523–524. <https://moluch.ru/archive/137/38507/>,
5. Garieev, A. A., Shykhova, O. F., & Shykhov, Yu. A. (2018). Организация самостоятельной работы студентов на основе учебных блогов [Organization of students' independent work on the basis of educational blogs]. Образование и Наука, 20(3), 117–139. <https://doi.org/10.17853/1994-5639-2018-3-117-139>
6. Aripova Nasiba Atkhamovna, Karshiev Azamat Rachmanovich, PROBLEMS OF ORGANIZATION OF STUDENTS' INDEPENDENT WORK IN THE CREDIT-MODULE SYSTEM, SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL(291-294)

RUS TILIDAGI IBORALARNI O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHDA YUZAGA KELADIGAN XATOLIKLAR

Botirova Ruxshonaxon Akmaljon qizi

*Andijon Davlat chet tillari instituti, Roman – german va slavyan tillari
fakulteti tarjima nazariyasi va amaliyoti yo‘nalishi 1- bosqich talabasi*

Annotatsiya: Maqolada ruscha frazeologik birliklarning o‘zbek tiliga tarjimasida uchraydigan xatoliklar va ularning sabablari tahlil qilingan. Asosiy e’tibor iboralarning madaniy va uslubiy jihatlarini saqlagan holda adekvat tarjima qilishga qaratilgan. So‘zma-so‘z tarjima xatoliklarga olib kelishi mumkinligi ko‘rsatilib, ekvivalent topishning ahamiyati ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: ekvivalent, konnotatsiya, adekvatlik, frazeologik birlik, so‘zma – so‘z tarjima.

Аннотация: В статье проанализированы ошибки, возникающие при переводе русских фразеологических единиц на узбекский язык, а также причины этих ошибок. Основное внимание уделяется адекватному переводу с сохранением культурных и стилистических